

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fan, innovasion rivojlantirish va o'qitishni tashkil etish bo'limi

Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish va oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish va ishlab chiqishda ishtirok etish;

vazirlik tizimida ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni rivojlanishini ta'minlash; vazirlik tizimidagi ilmiy-tadqiqot va o'quv muassasalarida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek ularning natijalarini vazirlik va Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi (keyingi o'rinlarda - FVDT) amaliy faoliyatiga tatbiq qilish;

Fuqaro muhofazasi instituti huzuridagi Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek fuqaro muhofazasi sohasidagi ilmiy ishlarni rivojlantirish bo'yicha idoralararo kengashning samarali faoliyatini ta'minlash;

FVDT rahbarlar tarkibini, aholini o'qitish va qayta tayyorlashni tashkil etish, o'qitiluvchilarning toifalarini, dasturlarini, o'qitish muddatlarini kelishish;

vazirlik ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda ishtirok etish;

vazirlik ta'lim muassasalariga qabul uchun mutaxassislik yo'nalishlari va kadrlar tanlash tadbirlarini tashkil etishda ishtirok etish;

respublika davlat boshqaruv organlari va xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida vazirlik tuzilmalari xodimlarining o'qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirishini tashkil etish;

aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va professional tayyorgarlik bo'yicha o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlar chop etish faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va professional tayyorgarlik bo'yicha axborot-tahliliy ta'minotni amalga oshirish;

aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va professional tayyorgarlik bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribani o'rganish, umumlashtirish va amaliyotga tatbiq qilish.

Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish va oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-texnik

faoliyatni rivojlantirish bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirish va ishlab chiqishda ishtirok etish sohasida:

vazirlikka yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda yagona ilmiy-texnik siyosatni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish ishlarini tashkil etadi;

favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish va oqibatlarini bartaraf etish, shuningdek fuqaro muhofazasi va yong'in xavfsizligini ta'minlash sohasida ilmiy-texnik va innovasion rivojlanishga yo'naltirilgan davlat dasturlarini ijrosini ta'minlaydi;

vazirlik tizimida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha vazirlik rahbariyatiga taklif kiritadi;

vazirlik tizimida ilmiy-texnik tadbirlar o'tkazilishini tashkil qiladi;

vazirlik ilmiy-texnik siyosatini tashkil etish va amalga oshirish masalalariga tegishli normativ-huquqiy va uslubiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etadi;

ilmiy-axborot ishlarini tashkil etadi (vazirlik vakolati doirasidagi xalqaro va mahalliy ilmiy konferensiyalar, forumlar, simpoziumlar, sessiyalar, davra suhbatlari, seminarlar tashkil etish va o'tkazish);

vazirlik ilmiy-texnik faoliyatini tahlil qiladi.

b) vazirlik tizimida ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni rivojlanishini ta'minlash sohasida:

aholi va hududlarni muhofaza qilish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari monitoringini amalga oshiradi;

vazirlikning ilmiy-texnik ehtiyojlariga asosan amaliy ilmiy-tadqiqotlar va eksperimental ishlanmalarni moliyalashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashni tashkil qiladi;

vazirlik tizimidagi ilmiy-tadqiqot ishlari ko'rgazmalarining o'tkazilishini rejalashtiradi va muvofiqlashtiradi;

yakuniga yetkazilgan sohaga oid tadqiqotlar va ishlanmalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ekspertizasi o'tkazilishini tashkil qiladi;

ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil qilish bo'yicha rivojlangan xorijiy tajribani o'rganadi.

v) vazirlik tizimidagi ilmiy-tadqiqot va o'quv muassasalarida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini muvofiqlashtirish, shuningdek ularning natijalarini vazirlik va FVDT amaliy faoliyatiga tatbiq qilish sohasida:

yangi yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi, ish dasturini shakllantirishni tashkil qiladi, uni amalga oshirish usul va uslublarini belgilaydi;

vazirlik tizimida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish bo'yicha rejalar ishlab chiqadi;

vazirlik tuzilmalarining ilmiy ishlar rejalarini ko'rib chiqadi va kelishadi;

vazirlik markaziy apparati tarkibiy tuzilmalari, hududiy organlari, ta'lim va ilmiy muassasalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtiradi va uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi;

vazirlik tizimida ilmiy va ta'lim faoliyati uyg'unlashuvi bo'yicha tadbirlar amalga oshiradi.

g) Fuqaro muhofazasi instituti huzuridagi Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek fuqaro muhofazasi sohasidagi ilmiy ishlarni rivojlantirish bo'yicha idoralararo kengashning samarali faoliyatini ta'minlash sohasida:

Fuqaro muhofazasi instituti huzuridagi Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, shuningdek fuqaro muhofazasi sohasidagi ilmiy ishlarni rivojlantirish bo'yicha idoralararo kengashi va vazirlik Ilmiy-texnik kengashi faoliyatini tashkil qiladi;

Idoralararo kengash faoliyati bo'yicha yillik ish rejalari va hisobotlarini tayyorlaydi;
Idoralararo kengash yig'ilishlarini tayyorlaydi va o'tkazadi;

Idoralararo kengash yig'ilishi qarorlarining o'z vaqtida ijrosi ta'minlanishini muvofiqlashtiradi;

Idoralararo kengash a'zolarining axborot ta'minoti tadbirlarini bajaradi;

yakuniga yetkazilgan tadqiqotlar va ishlanmalar bo'yicha ilmiy-tadqiqot ekspertizasi o'tkazilishini tashkil qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Innovasion rivojlanish vazirligi, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan ilmiy va ilmiy-texnik hamkorlikni tashkil qiladi.

d) FVDT rahbarlar tarkibini, aholini o'qitish va qayta tayyorlashni tashkil etish, o'qitiluvchilarning toifalarini, dasturlarini, o'qitish muddatlarini kelishish:

ixtisoslashgan ta'lim, FVDT rahbarlar tarkibi va aholini o'qitish hamda professional tayyorgarlik bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish bo'yicha rahbariyatga taklif kiritadi;

vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalari tomonidan FVDT rahbarlar tarkibi va aholini o'qitish bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni nazorat qiladi, ularga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi, amalga oshirilgan ishlar hisobotini taqdim etish bo'yicha yagona tartibni tashkil etadi.

ye) vazirlik ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda ishtirok etish sohasida:

professional tayyorgarlikni takomillashtirish masalalari bo'yicha vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalari rahbarlari bilan o'quv-uslubiy seminarlar va yig'inlar tashkil etadi;

vazirlik ta'lim muassasalari o'quv rejalari va dasturlarini ko'rib chiqish va kelishishni tashkil etadi. Ularni amalga oshirilishini nazorat qiladi;

vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalariga mutaxassislar tayyorlashni amalga oshiruvchi vazirlik tasarrufidagi va boshqa ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqishni tashkil etadi va ishlab chiqishda ishtirok etadi;

vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalariga mutaxassislar tayyorlashni amalga oshiruvchi vazirlik tasarrufidagi va boshqa ta'lim muassasalarida mutaxassislik va ixtisosliklar ro'yxati, mutaxassislar tayyorlash shakli va muddati bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

vazirlik ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonni takomillashtirish, vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalarida ta'lim va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar ijrosini nazorat qiladi;

vazirlik ta'lim muassasalari va vazirlikning hududiy va tarkibiy tuzilmalari o'rtasida kursant, student va tinglovchilarni o'qitish masalalari yuzasidan hamkorlikni tashkil qiladi.

j) vazirlik ta'lim muassasalariga qabul uchun mutaxassislik yo'nalishlari va kadrlar tanlash tadbirlarini tashkil etishda ishtirok etish sohasida:

vazirlik ta'lim muassasalari abituriyentlarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablarni, o'qishga qabul qilinadigan nomzodlarning tanlab olish mezonlari va uslublarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

vazirlik ta'lim muassasalarida nomzodlarni ta'limga mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha uslubiy ta'minotni tashkil etadi.

z) respublika davlat boshqaruv organlari va xorijiy davlatlar ta'lim muassasalarida vazirlik tuzilmalari xodimlarining o'qitish, qayta tayyorlash va malaka oshirishini tashkil etish sohasida:

vazirlik ta'lim muassasalari professor-o'qituvchi va rahbarlar tarkibini vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalarida, respublika va boshqa davlatlarning ilg'or ta'lim muassasalarida tajriba almashinuvini tashkil etadi;

vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalari xodimlarini xizmat tayyorgarligi bo'yicha uslubiy ta'minotni tashkil etadi;

vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalari xodimlarining qayta tayyorgarlikdan o'tish, toifani oshirish, mavjud toifani tasdiqlashga oid ma'lumotlarni tahlil etadi.

i) aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va professional tayyorgarlik bo'yicha o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlar chop etish faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish sohasida:

FVDT rahbarlar tarkibi va aholini o'qitish hamda professional tayyorgarlik bo'yicha hisobni yuritish va rejalashtirish hujjatlari, o'quv va o'quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlashni tashkil etadi;

vazirlik hududiy va tarkibiy tuzilmalarining o'quv, o'quv-uslubiy va ilmiy-texnik adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojlari yuzasidan ma'lumotlarni tahlil qiladi.

k) aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va professional tayyorgarlik bo'yicha axborot-tahliliy ta'minotni amalga oshirish sohasida:

FVDT rahbarlar tarkibi va aholini o'qitish hamda professional tayyorgarlik holati bo'yicha axborot-tahliliy hujjatlar tayyorlaydi.

l) aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va professional tayyorgarlik bo'yicha mahalliy va xorijiy tajribani o'rganish, umumlashtirish va amaliyotga tatbiq qilish sohasida:

aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va professional tayyorgarlik sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

vazirlik hamda boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan aholini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, o'quv-tarbiyaviy jarayon, ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy va tarbiya ishlarini tashkil etishga qaratilgan konferensiya, seminar, yig'ilish va boshqa tadbirlarda ishtirok etadi va tashkil qiladi.